

MA'MURIY ISLOHOTLAR

Raxmatov Nozimjon G'afarovich

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirlining 2-son Toshkent
akademik litseyi Huquqshunoslik fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining huquq tizimida ma'muriy huquqning tutgan o'rni, uning boshqa huquq sohalari va fanlar bilan aloqadorligi, ma'muriy huquqning predmeti, sub'ekti va manbaalari haqida batafsil yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy huquq, gorizonta, yustitsion va yurisdiksiya munosabatlari, mansabdor shaxslar.

KIRISH

Yuridik fanning ma'muriy huquq tarmog'i o'z tabiatiga ko'ra davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimi qonuniyatlarini o'rganishna, ayniqsa ijro hokimiyati boshqaruv organlarining tuzilishi, funksiyalari, vazifa va vakolatlarini, ularning fuqarolar va yuridik shaxslar bilan bo'ladigan munosabatlari o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu jarayonni kuzatish, tahlil qilish va zamon talablari asosida mazkur tizimning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishda katta ahamiyatga ega huquq tarmog'i hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Ma'muriy huquq – bu konkretlashtirilgan konstitutsiyaviy huquqdir. Zero, davlat boshqaruvining oliy yuridik asoslari Konstitutsiyada o'z ifodasini topadi. Va bunday yondashuv aksariyat xorijiy mamlakatlar huquqi va amaliyotiga mos, ya'ni Asosiy qonunda e'tirof etilgan ustuvor prinsiplar va qoidalarni amaliyotda, ularning ijro hokimiyati organlari tomonidan joylardagi amalga oshirilishini ta'minlashda boshqaruv organlari Oliy qonun va uning asosida qabul qilingan qonunlarga mos ravishda faoliyat yuritadi, davlat siyosatini ta'minlaydi.

Yuqorida Ma'muriy huquq o'z negizini Konstitutsiyaviy huquqdan o'zlashtiradi deb ta'kidlagan edik. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan bugungi kunda Ma'muriy huquq tarmog'i ham tizim tashkil etuvchi fan tarmog'iga aylanib ulgurdi. Xususan, Ma'muriy huquq negizida paydo bo'lib, bugungi kunda mustaqil fan tarmog'i sifatida o'rganilayotgan bir qator Ma'muriy huquqning sohalari mavjud. Jumladan, Moliya huquqi, Davlat xizmati, Ma'muriy protsess va boshqalar. Ushbu huquq sohalari asosi, boshlanish –manbai Ma'muriy huquqdir. Ma'muriy huquq esa o'z navbatida o'z boshlanish –manbai ni Konstitutsiyaviy huquqdan oladi.

Ma'muriy huquqning asoslarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining quyidagi normalarida kuzatishimiz mumkin:

2-modda.

Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

3-modda.

O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir.

11-modda.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi.

XX bob. Vazirlar Mahkamasi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi....

XXI bob. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari

Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Tuman va shaharlarning hokimlari viloyat, Toshkent shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi...

Shunday qilib, **Ma'muriy huquqning predmetini** davlat boshqaruvi organlari faoliyatida boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan hamda ularning jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlari natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Ma'muriy huquqning manbaalariga quyidagilar taalluqli:

1. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;*
2. *O'zbekiston Respublikasining Qonunlari va Kodekslari;*
3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari;*
4. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlari;*
5. *Davlat boshqaruvi organlarining rasmiy hujjatlari;*
6. *Mahalliy hokimlarning rasmiy hujjatlari.*

Avval ta'kidlaganimizdek, Ma'muriy huquq o'zining boshlanish asosini Konstitutsiyaviy huquqdan boshlar ekan, tabiiy ravishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi uning eng asosiy va birinchi manbaasi bo'ladi.

Keyingi pog'onada eng muhim va Ma'muriy huquqda ko'p ishlatiladigan manbaalardan biri Qonunlar va Kodekslardir. Ayrim adabiyotlarda u yoki bu qonunni yoki Kodeksni alohida ko'rsatib, ayni shu qonun yoki Kodeks Ma'muriy huquqning manbaasi degan fikrlarni uchratish mumkin. Ta'kidlash kerakki, ushbu yondashuv uncha to'g'ri emas va nazarimizda har qandan Qonun yoki Kodeks – bu Ma'muriy huquqning bevosita manbaasi bo'la oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Toshkent davlat yuridik universiteti. Murataev S.A., Musaev B.T., Artikov D.R. Ma'muriy huquq va protsess. Darslik. Toshkent – 2020 yil;
2. Yarmatova, M. A. (2019). UTILIZATION OF OVERHEAD PROJECTOR IN RUSSIAN LANGUAGE CLASSES. *Modern Science*, (12-2), 265-267.
3. Surayyo, Y., & Sabohat, G. (2023). DEPRESSIVE-ANXIETY DISORDERS IN PATIENTS WITH RHEUMATOID ARTHRITIS AND METHODS OF THEIR PSYCHOCORRECTION. *Interpretation and researches*, 2(3), 9-16.
4. Гафурова, С. Ш., & Юсупходжаева, С. Т. (2023). Differential analysis of neurotic disorders in irritable bowel syndrome and improvement of medical psychological support in them.
5. Sh, G. S. (2020). Ichak ta'sirlanish sindromidagi psixoemotsional buzilishlar va unda psixoterapevtik yordam ko'rsatish.
6. Serofiddin o'g, S. G. A. (2024). MODERN TECHNOLOGIES OF THE WASTE RECYCLING SYSTEM IN THE MODERN WORLD. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 5(42), 32-41.
7. Жамолова, Г. М. К., Хамракулова, С. О. К., & Уралова, Н. Б. К. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ У ЧЕЛОВЕКА НА ПРИМЕРЕ РОБОТОТЕХНИКИ. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (6), 395-402.
8. qizi Jamolova, G. M., Bo'riyev, S. N., & Tursunov, A. (2023). METHOD FOR PRECISE LANDING OF UNMANNED AERIAL VEHICLE. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 1159-1167.
9. Muzaffarovna, J. G. (2022). Investigation of a common emitter amplifier made in a bipolar transistor. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.5 Pedagogical sciences).
10. Ишанходжаева, Г. Т., & Кодирова, З. М. (2024). ПОДОСТРЫЙ СКЛЕРОЗИРУЮЩИЙ ПАНЭНЦЕФАЛИТ У ДЕТЕЙ: КЛИНИКО-НЕВРОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ. *Scientific Journal Of Medical Science And Biology*, 3, 6-11.

11. Rakhimbayeva, G. S., Ishankhodjaeva, G. T., & Asomova, N. I. (2021). Postcovid syndrome in children: clinical and neurological aspects of the problem. *Asian journal of Pharmaceutical and biological research*, 10(2).
12. Ишанходжаева, Г. Т. (2024). БОЛАЛАРДА ЎТКИРОСТИ СКЛЕРОТИК ПАНЭНЦЕФАЛИТ: БИРЛАМЧИ КЛИНИК-НЕВРОЛОГИК НАМОЁНДАЛАРИ. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 5(1), 867-869.
13. Баширова, М. А., & Сеидова, Р. С. (2014). Использование инновационных технологий в преподавании русского языка фонетические особенности качинского диалекта хакасского языка. *Мир науки, культуры, образования*, (6 (49)), 357-359.
14. Karimovna, S. Z. (2023). THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF PEDAGOGY. *Conferencea*, 43-45.
15. Normurotovich, Q. M., & Dilshod ogli, X. H. (2023). RODOPSIN G OQSILLARI FILOGENETIK TAHLIL. *Journal of new century innovations*, 43(2), 178-183.
16. Saidqodirova, D. S. (2017). Linguistic study of Internet terms in English and Uzbek. Dis. PhD.
17. Рахмонкулова, О. А. (2022). РАСШИРЕНИЕ УЧАСТИЯ ЖЕНЩИН В ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ–ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПРОВОДИМЫХ РЕФОРМ В УЗБЕКИСТАНЕ. In *The 8th International scientific and practical conference “Modern directions of scientific research development” (January 26-28, 2022) BoScience Publisher, Chicago, USA*.
18. Xayrulloeyeva, S. Z. (2023). Development of the detective genre in American literature. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(03), 24-33.
19. Rakhimovna, R. D. (2024). DEVELOPMENT OF LITERARY PSYCHOLOGISM IN UZBEK LITERATURE. *Conferencea*, 69-72.
20. Radjabova, D. (2022). IDENTIFYING AND DESCRIBING ERRORS IN LANGUAGE LEARNING. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 10(10).
21. Sobirovna, T. U. (2023). SHER ZOOSEMISM IN UZBEK WORKS. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 1(8), 168-176.
22. Toirova, U. (2021). Said Ahmadning “Qoplon” va Roald Dahl ning “Beware of the Dog” hikoyalarida It zoosemasi berilishi. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
23. Toirova, U. (2022). ВЕРНОСТЬ В ИСТОРИЯХ" КАРАКО'З МАДЖНУН" С. АХМАДА И" ХАТИКО" ПАМЕЛЛЫ СТАРНЕР В ЗООСЕМА" ИТ". *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 15(15).
24. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. “O‘zbekiston” 2019 y. <https://lex.uz/docs/20596> ;

25. Sh.M.Mirziyoev. erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz // Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. 14.12.2016.
<http://president.uz/uz/lists/view/111>.

